

## YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY MUSIQIY QADRIYATLARNING ROLI

*Jumayev To'ra*

*Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san'atiga  
ixtisoslashtirilgan maktab internati katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Yoshlar tarbiyasida milliy musiqiy qadriyatlar, o'zbek millati, tarixi, va madaniyati bilan bog'liq muhim vazifalarni o'zlariga olgan holda o'zlashtirishga yordam beradi. Bu qadriyatlar O'zbekistonning musiqa va raqs san'atining asosiy tayinlovchilari, shuningdek, milliy identitetni saqlab qolish va o'z milliy yozuvini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu, yoshlarga milliy ruhni o'zlarining qalbida o'rgatadi va ularni o'z milliy meroslariga qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa ularga o'z mamlakatlarini, ularning o'zining musiqa, raqs, va san'atining o'zgarishsiz qadriyatlarini qadr-qimmatini anglab tushishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar;** jamiyat, yoshlar, siyosat, tarbiya, ta'lim, yuksak ma'naviyat, ijtimoiy faollik, ma'naviy kamolat, taraqqiyot, mustaqil dunyoqarash, musiqa tarbiyasi;

### KIRISH

Ma'lumki, xalqimiz orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqat, hurmat kundan-kunga rivojlanib, mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashning kuch qudrati manbaiga aylanib bormoqda, bugungi kunda O'zbekistonning istiqloli va istiqbolini, buyuk kelajagini umumjahon sivilizatsiyasiga qo'shayotgan hissasini butun dunyo qadrlamoqda, tan olmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar faqatgina bizning Respublikamizdagina emas, balki butun jahonda bir butun, yaxlit holatda har bir inson qalbidan chuqur joy olmoqda.

Davlat ta'lim standartlarida qadriyatlar haqidagi bilimlar bugun ta'lim muddati mobaynida va uning hamma shakllarida berilishiga alohida ahamiyat berilgan. Shunday ekan, har bir yoshni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotni o'qishga ishtiyoq uyg'otish, qo'shiq aytish, raqs tushish, rang tasvirlar, musiqa asari, me'morchilik, teatr to'g'risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega.

### ASOSIY QISM

Ashula, musiqa, raqs ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan

bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasmlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Haqiqatdan ham xalq musiqa merosida eng ommaviylik kasb etuvchi qo'shiqchilik ijodiyotiga oid folklor, mumtoz va maqom asarlarining badiiy mazmuni tahlil qilinsa, ularda "xalq donishmandligi"ning eng ulug' va oliyanob g'oyalari mujassamlanganligini ko'rish mumkin. Masalan, folklor yo'nalishidagi xalq qo'shiqlari o'z mazmunida xalqning eng muhim, o'ziga xos turli ko'rinishlari va qirralarini aks ettiradi. Shu sababli musiqa darslarida ularni o'rganish o'quvchi yoshlarni milliy o'zligini anglashda ahamiyat kasb etadi. Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim.

Milliy istiqloq sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analarni tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat qilayotgan xalqimizga, jamiyatimiz ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy musiqa yoshlarga madaniy tuproqni o'rgatish, tarbiyalash, insoniy qadriyatlar, noyoblik va qadriyatni his qilishga yo'l berishga yordam beradi. Yoshlar milliy musiqani o'rganish orqali o'z insoniy oid bo'lganlik hissiyatini rivojlantiradi. Bu orqali ular o'z davri, millati, tarixiy o'ziga xos atrof-muhitni, musiqa turlarini, uslublarini tushunishadi va ularga hurmat qilishadi.

Yoshlar milliy musiqa ma'rifatiga ega bo'lishi, uning tarixiy, jamiyatchilik, insoniy qadriyatlarini tushunishiga, xalqimizning erk-tarixi, madaniyati, milliy ma'naviyatini o'rganishga imkon beradi. Bu esa ularga mustaqil fikrlash va tahlil qilish, adabiyot va san'at sohasida rivojlanishga yo'l beradi. Yoshlar milliy musiqasi orqali milliy-madaniy g'oyalar, istiqbollari va fikrlarni ko'rish, tushunish va anglashuvga yordam beradi. Shunda bir qator milliy musiqiy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida xususi ahamiyatga ega.

Bola shaxsining kamol topishida doimiy ravishda muhitning ta'siri sezilib turadi. Muhit-bu insonga ta'sir etuvchi tashqi voqea-hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi uzluksiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqea-hodisalar o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazib turadi. Buning

uchun esa tarbiyalanuvchidagi o'zgarishlarga ota- onalar va tarbiyachi, o'qituvchilar doimiy ravishda e'tiborli bo'lib, tashqi muhitning salbiy ta'sirini oldini olib, ijobiy ta'sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim. Yoshlarni ijtimoiy va yakka tartibdagi foydali mehnatga jalb qilish, mehnat o'rinlari bilan tahminlash, bu jarayonda yoshning, umuman yoshlarning qiziqishi, iste'dodi, manfaatiga ham e'tiborni kuchaytirish lozim;

1. Yoshlarda, ijtimoiy faollik fazilatini oshirish, yoshlar harakatida ularni yetakchilik xususiyatlarini oshirish;

2. Milliy g'oya, milliy mafkurani yetarli darajada targ'ib va tashviq qilish. Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unholda milliy g'oyaning, milliy mafkuraning asosiy tamoyillari hisoblanadi;

3. Yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirishda tabiiy-ilmiy bilimlarni keng targ'ib qilish;

4. Tanqid va o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil fikrlash yo'llarini kuchaytirish;

5. O'tmish merosimiz yutuqlari, mustaqillik adabiyoti, san'ati yutuqlarini keng targ'ib qilish;

6. Milliy an'analar, urf-odatlar ruhida tarbiyalashni kuchaytirish, ayni paytda umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayangan holda g'oyaviy tarbiyani tashkil qilish zarur;

7. Yoshlar salohiyatini oshirish, ularning hayotda o'rnini taxminlash bilan bog'liq ishlarni kuchaytirish;

Yoshlar tarbiyasida milliy musiqa qadriyatlarining roli juda muhimdir. Milliy musiqa qadriyatlari, bir mamlakatning musiqa va raqs san'atining asosiy qismini tashkil etadi va uning tarixiy, madaniy va milliy identitetini ifodalaydi. Yoshlar milliy musiqa qadriyatlari orqali o'z mamlakatlarining zamonaviy va klassik musiqasini tushunishadi, uning tarixi va asosiy uslublarini o'rgatadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy musiqa qadriyatlari yoshlarga mamlakatlarining tarixi, madaniyati, xalq qo'shiqlari va raqs usullarini o'rganish imkoniyatini beradi. Bu qadriyatlar orqali yoshlar o'z mamlakatlarining musiqa va raqs san'atini sevgi bilan tanishadi va uningga qo'llab-quvvatlashadi. Milliy musiqa qadriyatlari yoshlarga milliy identitetlarini tushunishda, g'amxo'rlik va hurmatni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, milliy musiqa qadriyatlari yoshlarga ijodiy va estetik ko'nikmalarini rivojlantirishda ham yordam beradi. Ular o'z mamlakatlarining musiqa va raqs san'atidagi unikal uslublarini o'rganish orqali ijodiy potentsiallarini rivojlantirishadi. Shuningdek, milliy musiqa qadriyatlari yoshlarga g'amxo'rlik, sabr, ishonch va jasoratni o'rgatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inomova K.M. «Oilada bolalarning mahnaviy-axloqiy tarbiyasi» -Toshkent:
2. Musurmonova O. «Oila mahnaviyat-milliy g'urur». - Toshkent: O'qituvchi. 1999, - 200 b.
3. E.Fayzullayev. —Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi. T.Fan va texnologiyalar nashriyoti-2007yil.
4. S.Yo'ldosheva. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogic asoslari. Toshkent 2007 yil.
5. Ochilova M. Ochilova N. «O'qituvchi odobi». - Toshkent: O'qituvchi, 1993\7. - 136 b.
6. Jo'raev A.J. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T.: "O'qituvchi", 1994.